“OYSULUV” DOSTONI HAQIDA MULOHAZALAR

Munis Yunusovna JO‘RAYEVA
Filologiya fanlari bo‘yicha (PhD) falsafa doktori
O‘zbekiston Respublikasi FA O‘zbek tili,
adabiyoti va folklori institute
Toshkent, O‘zbekiston
Elektron pochta: munis.jurayeva80@ mail.ru

Annotatsiya

Ushbu maqolada “Oysuluv” dostonining mazmuni, yozib olinishi, o‘rganilishi, tarixiy asoslari, badiiyatiga oid mulohazalar bildirilgan.

Tayanch so‘zlar: doston, baxshi, ertak, Oysuluv, tarixiy-qahramonlik, rivoyat, epik syujet.

РАССУЖДЕНИЯ О ДАСТАНЕ “ОЙСУЛУВ”

Мунис Юнусовна ЖУРАЕВА
Доктор философии (PhD) по филологическим наукам
Институт узбекского языка, литературы
и фольклора ФА Республики Узбекистан
Ташкент, Узбекистан
Elektron pochta: munis.jurayeva80@ mail.ru

Аннотация

В этой стате изложены мнения о дастане «Ойсулув», а также его содержании, записи, изучению, историческим основам и художественности.

Ключевые слова: дастан, бахши, сказка, Ойсулув, историко-героический, легенда, эпический сюжет.

O‘zbek xalq og‘zaki ijodi bitmas-tuganmas ma’naviy xazina. Bu xazinaning kattagina qismini asrlar davomida sayqallanib kelayotgan, donishmand ajdodlarimizning yuksak tafakkur salohiyati aks etgan epos namunalari tashkil etadi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev 2019-yil Surxondaryoda bo‘lib o‘tgan xalqaro baxshichilik festivalida ta’kidlaganidek, “Har qaysi xalqning azaliy tarixi va madaniyati, eng avvalo, uning og‘zaki ijodi – folklor san’atida, doston va eposlarida mujassam topgan bo‘lib, ular millatning o‘zligini anglash, uning o‘ziga xos milliy qadriyatlari va an’analarini saqlash va rivojlantirishda bebaho manba hisoblanadi” [1]. Darhaqiqat, xalq dostonlari xalqimizning paydo bo‘lishi, davlatchiligimizning shakllanishi va rivojlanishi, ajdodlarimizning madaniy-maishiy hayoti, ma’naviy dunyoqarashi borasida muhim ma’lumotlarni poetik ifodalagan og‘zaki yodgorlikdir.

O‘zbek xalq eposi xazinasining nodir manbalar bilan boyishida chechan xalq baxshisi Ergash Jumanbulbul o‘g‘lining salmoqli hissasi bor. Ergash Jumanbulbul o‘g‘lidan yozib olingan folklor namunalari tafakkuri keng ajdodlardan kelajagi buyuk avlodlarga munosib nodir meros bo‘lib kelayotganligi shubhasiz. Baxshi ijodiy merosida “Oysuluv” dostonining o‘rni bo‘lakcha. Dostonni atoqli folklorshunos olim H.Zarifov 1937-yil yanvar oyida yozib olgan. O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti Folklor arxivida 1671-inventar raqami ostida saqlanadi. Mazkur inventarga olingan papka ichida qo‘lyozma ikki nusxada bo‘lib, dastlabki arab alifbosiga asoslangan eski o‘zbek yozuvida bitilgan qo‘lyozma jami 26 betdan iborat bo‘lib, oddiy sarg‘imtir qog‘ozda siyohli ruchkada yozilgan. Bu 1937-yilda yozib olingan dastlabki nusxa sanalib, ikkinchisi ham Xodi Zarifov husnixati bilan kirill alifbosiga asoslangan o‘zbek yozuvida bitilgan, 50 sahifani tashkil etadi. Biroq bu nusxa qachon va nima sababdan kirill alifbosiga o‘tkazilganligi sababi noma’lum. Oddiy sarg‘imtir qog‘ozga siyoh ruchkada ko‘chirilgan kirilldagi nusxa dastlabkisiga nisbatan ancha keyinroq yozilganini qog‘ozning saqlanishiga qarab sezish mumkin. Mazkur doston 1971- yil Ergash Jumanbulbul o‘g‘li badiiy merosi jamlangan “Bulbul taronalari” besh jildlik nashri [2;41–64] ning birinchi jildida hamda O‘zbek xalq ijodi ko‘p tomlik seriyasida nashr qilingan [7;7–23].

Doston mazmuni tarixiy “To‘maris” rivoyati voqealarining badiiy ifodasi sifatida alohida ahamiyatga ega. Xalq og‘ir damlarda unga dalda bo‘lgan qahramon farzandlari nomini epik an’ana doirasida kuylab keladi. Ularning qahramonliklaridan kelajak avlod xabar topib, o‘rnak olishini istaydi. Ayniqsa, vatanparvarlik ruhidagi afsona va rivoyatlar qaysi og‘zaki janrda bo‘lmasin, og‘izdan-og‘izga o‘tib, asrlar davomida yashab kelyapdi. “Oysuluv”da eramizdan avvalgi VIII–IV asrlarda mamlakatimizga bostirib kirgan eroniylar bilan kechgan jang tasviri badiiy ifoda etilgan bo‘lib, unda qahramonlik, mardlik, ona Vatanga bo‘lgan cheksiz muhabbat, sarkarda Oysuluvning jasorati haqida hikoya qilingan. Dostonda Turon malikasi Oysuluv va uning o‘g‘li Kunbotirning Eron shohi Doro va uning lashkarboshisi Pahlavon Qaysarga qarshi kurashi kuylangan. “Turon

mamlakatida Oysuluv degan olp bir xotin podsholik qilar ekan, ko‘p suluv ayol ekan. Buning suluvligiga Iram bog‘ parilarining ham rashki kelar ekan” [7;7] – deb ta’riflangan oydek chiroyli qahramonni Eron qo‘shini lashkarboshisi Pahlavon Qaysar ta’rifini eshitib, g‘oyibdan oshiq bo‘lib qoladi. Eron podshosining Oysuluvni o‘ldirib, yurtini ishg‘ol qilish niyatida ekanligini eshitib, Oysuluvdan ajralib qolishni istamay, bu vazifani o‘ziga topshirishini so‘raydi. U Oysuluvning pahlavon o‘g‘li Kunbotirni hiyla-nayrang bilan asir olib, zindonga tashlaydi. Pahlavonning qizi Oftoboy Kunbotirni sevib qoladi, uni bandilikdan xalos etadi. Kunbotir Turon va Eron qo‘shinining shiddatli jangi ustidan chiqib, jangga kiradi. Jangda Oysuluv boshchiligidagi Turon qo‘shini g‘olib keladi. Doro va Pahlavon Qaysar halok bo‘lib, Oysuluv o‘g‘li Kunbotirga Oftoboyni nikohlab beradi. Ona-bola, hamma murod-maqsadiga etadi.

Dostonning og‘zaki ijroda kuylangan badiiy mukammal matni bizgacha yetib kelmagan. Lekin “Ergash Jumanbulbul o‘g‘lining tasdiqlashicha, doston o‘tgan asrlarda jonli og‘zaki an’anada yashagan va baxshilar tomonidan sevilib kuylangan. Bu doston XVIII asrning oxiri va XIX asrning birinchi yarmida yashagan talantli xalq shoirasi, Jumanbulbulning momosi Tilla kampirning maroq bilan kuylaydigan asarlaridan biri bo‘lgan” [4;127]. Folklorshunos olim, professor Shomirza Turdimovning yozishicha, “Oysuluv” dostoni faqat ayollar davrasida aytib kelingani bois, Jumanbulbul boshqa baxshilardan uni eshitmagan bo‘lsa kerak. Chunki bizda katta davralarda ayollar baxshilik qilib doston kuylashi urfdan chiqqan edi. Sulton kampir, Tilla kampir kabi chechan ayollar o‘zi bilgan dostonu qo‘shiqlarni ayollar va bolalarning tor yig‘inlaridagina kuylagan” [9]. Doston ommalashgan bo‘lsa-da, yuqoridagi sabablar yoki e’tiborsizlikmi, boshqa biror sabablar tufaylimi dostonchilar tomonidan yod olinmagan va keyingi avlod baxshilari repertuariga kirmay qolgan. Dostonning mazmuni, matni ota-bola Jumanbulbul va Ergash shoirlar xotirasida saqlanib, bizgacha yetib kelgan.

H.Zarifov doston nashrining qisqacha so‘zboshisida dostonning yozib olinishi, uni kuylaganlar, shu kungacha yetib kelish jarayoni, nomlanishi kabi muhim ma’lumotlarni berib o‘tgan. “Otam aytar edi: “Tilla kampirning bir dostoni bor, uni

men ham bilmayman, Jossoq ham bilmaydi, boshqa shoirlarning ham aytganini eshitmadik. Tilla kampir yosh vaqtida qo‘shiq qilib aytar ekan, qarigan so‘ng ertak qilib aytar edi. Men ko‘pda quloq solmas, ertak-da deb keta berar edim”. Bir kun “Tilla kampirning ertagini aytib bering”, dedim otamga. Shunda shoir kulib, “Men momongday aytolmayman-da, bilganimni aytsam, aytib berayin”, deb yonboshlab yotib naql qilib edi, – deb asarning mazmunini Ergash shoir so‘zlab berdi. Men uni shoir og‘zidan yozib oldim” [7; 6].

T.Mirzayev shunday yozadi: “...ayrim dostonlar bizgacha faqat mazmunlari orqaligina etib kelgan. “Oysuluv” dostoni xuddi shunday asarlardandir. Dostonning to‘la tekstini yozib olish uchun imkoniyat bo‘lmagan paytlarda uning to‘liq yoki qisqacha mazmunini qayd etish folklorshunoslikning asosiy talablaridan biridir. Shunday sharoitlarda baxshilarning “ertak qilib aytib berishida” yozib olingan tekstlarga ertak yoki ertak bilan doston o‘rtasidagi qandaydir oraliq namunalar sifatida qarash to‘g‘ri emas. Ular baxshi repertuaridagi doston variantining mazmunidirki, istalgan vaqtda uning to‘la poetik tekstini yozib olish mumkin” [7;113]. Shu o‘rinda dostonning janriy mansubiyati masalasiga ham to‘xtalib o‘tsak. Yuqorida keltirilganidek, Ergash shoirning otasi Jumanbulbulning xotirlashicha, Tilla kampir yoshlik paytida bu asarni “qo‘shiq qilib”, ya’ni doston sifatida ijro etgan, qarigach uni doston qilib kuylashga kuchi yetmay, “ertak qilib” aytgan. Ergash shoirdan yozib olingan namuna ham dostonning nasriy bayoni tarzida. T.Mirzaevning yuqoridagi fikricha, xalq baxshilari orasida dostonni “ertak qilib aytish” an’anasi ham mavjud bo‘lgan. Atoqli folklorshunos olim Xodi Zarifov Ergash shoirdan yozib olgan ushbu dostonga “Oysuluv” deb nom bergan. H.Zarifov V.M.Jirmunskiy bilan hamkorlikda yozgan “O‘zbek xalq qahramonlik eposi” kitobining tarixiy dostonlar tahliliga bag‘ishlangan bobida “Oysuluv” dostonini “Oysuluv va Kunbotir” deb nomlab, dostonni qahramonlik-romanik janrga yaqin kelishini yozishgan [4;131]. Folklorshunos olim M.Qo‘shmoqov ham “Oysuluv”ni qahramonlik-romanik doston deb tasniflaydi [8;135]. Doston syujetining tadrijiy rivoji masalasini chuqur tahlil etgan T.Mirzayev va B.Sarimsoqov [7;6–23] “Oysuluv” dostonini tarixiy-qahramonlik dostonining eng

yaxshi namunasi deb bilishgan. “Chunki uning mazmuni qahramonlik xarakteriga ega bo‘lishi, bir qator o‘rinlarda uzoq kechmishda ro‘y bergan konkret voqea va hodisalarga mos kelishi shunday xulosa chiqarishga imkon beradi” [8;18]. Bizningcha ham “Oysuluv” o‘zbek xalq tarixiy eposining tarixiy-qahramonlik tipiga mansub epik asar hisoblanadi.

“Oysuluv”ning tarixiy asoslarini o‘rgangan olimlar doston o‘zining syujet asoslariga ko‘ra sak-massaget eposi an’analari bilan tarixiy-vorisiy aloqadorlikka ega ekanligini ta’kidlashgan. Ular sak-massaget qabilalari eposining rudimentlari O‘rta Osiyo hududida istiqomat qilgan ko‘pgina xalqlar va elatlarning folklor an’analari rivojiga kuchli ta’sir ko‘rsatganligini, “Oysuluv” dostonining tarixiy epos namunasi – “To‘maris” rivoyati syujetiga ko‘p jihatdan yaqin kelishini, o‘zbek folkloridagi bu epik syujetning tarixiy asoslari aynan qadimgi sak-massaget eposi an’analariga borib taqalishini qayd etishgan [3].

“Oysuluv”ni Ergash Jumanbulbul o‘g‘li otasidan eshitganlari asosida hikoya qilib berishiga qaramasdan, hajman qisqagina hikoyaviy uslubdagi doston badiyatida ham shoirning shoirligi, so‘zga chechanligi, mahorati bo‘y ko‘rsatgan. Ijro jarayonida selday quyilib kelgan so‘zlar sa’jlanib kema-ket terilgan: Oysuluvning o‘g‘li – Kunbotirning ovozasi Turon bilan Eronga ketdi, bu gaplar Doro podshoga yetdi. Doroning qahri kelib, ilonday zahri kelib, lashkarboshi – Pahlavon Qaysarni chaqirib muhrdor, tug‘dor, jami amaldorini yig‘ib aytdi: Ey Pahlavon Qaysar! Sen o‘zing polvon, egningda kark teri qalqon, belingda keskir isfihon, sening qo‘lingdadir mamlakati Eron, biz bilan qattiq taraf bo‘lipti mamlakati Turon” [2;42]. Birinchi gapdagi “Eron”, “Turon”, “ketdi”, “etdi”, “qahri kelib”, “zahri kelib”, “muhrdor”, “tug‘dor”, “amaldor”, ikkinchi gapdagi “polvon”, “qalqon”, “isfihon”, “Eron”, “Turon” so‘zlaridagi ohangdoshlikda alliteratsiyaning ajoyib namunasini ko‘rish mumkin. Dostondagi qahramonlar tilidan aytilgan qator iboralar va “Ilon chaqqan ola arqondan qo‘rqadi”, “Ot bosmaganni toy bossin” kabi maqollarning qo‘llanilishi shoir ijodiy salohiyatining yuksakligidan dalolat beradi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, Qo‘rg‘on dostonchilik maktabi epik an’analarini o‘zida mujassamlashtirgan “Oysuluv” dostoni massagetlar malikasi To‘maris to‘g‘risidagi qadimgi rivoyat syujetining badiiy evolyusiyasi natijasida shakllangan bo‘lib, hayotiy-tarixiy asoslari To‘maris rivoyatiga borib taqaladi. Janriy mansubiyatiga ko‘ra tarixiy-qahramonlik eposi namunasi hisoblangan dostonning asosiy qahramoni Oysuluv obrazi o‘zida yurtini ko‘z qorachig‘iday asrab-avaylaydigan chinakam vatanparvar hukmdor, dushman qo‘shiniga qiron keltirguvchi sheryurak bahodir, Kunbotirdek mard va jasur farzandni tarbiyalagan namunali ona, husni jamolda tengsiz sohibjamol, elu xalq tinchligini o‘ylaydigan xalqparvar malika sifatida abadul-abad ideal tarbiyaviy timsol bo‘la oladi. Doston mazmunining bosh g‘oyasi – Vatanparvarlik! O‘z yurtining tinchligi, mustaqilligi yo‘lida jonini ham berishga tayyor turgan fidoyi va elparvar Oysuluv haqidagi mazkur dostonning qadrlanishi ham aslida shunda. “Oysuluv” garchi Tilla kampir tilidan “ertak”, “qo‘shiq” bo‘lib kuylanib, nevara shoir tilidan hikoya qilingan bo‘lsa-da, xalqchilligi, g‘oyaviy jihatdan pishiqligi va badiiy asar sifatida mukammalligi bois “O‘zbek xalq ijodi yodgorliklari” 100 jildligining bir jildiga aynan “Oysuluv” deb nom berib, jild debochasi sifatida doston matni kiritildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning xalqaro baxshichilik san’ati festivali ochilishiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqi // Xalq so‘zi. –Toshkent, 2019. 7 aprel. – № 68.
2. Булбул тароналари. 1-жилд. /Нашрга тайёрловчи: Ҳ.Зарифов. – Тошкент, 1971. – Б.41-64.
3. Зарифов Ҳ. Аршақ – халқ қаҳрамони // Ўзбек фольклоршунослиги масалалари. 3-китоб. – Тошкент: Фан, 2011. – Б.14-30.
4. Мирзаев Т. Халқ бахшиларининг эпик репертуари. – Тошкент: Фан, 1979. – Б. 127

5. Мирзаев Т., Саримсоқов Б. Достонлар, уларнинг таснифи ва тарихий тараққиёти // Ўзбек фольклорининг эпик жанрлари. – Тошкент, 1981. – Б.6-23.
6. Мирзаев Т., Саримсоқов Б. Достон, унинг турлари ва тарихий тараққиёти // Ўзбек фолклорининг эпик жанрлари. – Тошкент: Фан, 1981. – Б.32.
7. Ойсулув. Достонлар /Нашрга тайёрловчи: Х.Зарифов. – Тошкент, 1984. – Б. 7-23.
8. Қўшмоқов М. Чечанликда сўзга сувдайин оқиб (Адабий-танқидий мақолалар ва эссе). – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1978.
9. https://kh-davron.uz/dir/kutubxona/20.02.2020.